

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13752777>

## TARIX SILSILASIDA GENDER TENGLIK YOXUD TURON AYOLLARING TARIXDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGI

**Shodmonova Gulizor Farxod qizi**

(Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi)

[shgulizor@gmail.com](mailto:shgulizor@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarixdagi ayollarning tenglik masalalari, jumladan, o‘zbek ayollariningadolatni tiklash, ma’rifatni targ‘ib qilish va siyosiy maydonda teng huquqli faoliyati va ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy sohalardagi strategiyalari tahliliy tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Gender tenglik, ayollar tarixi antologiyasi, Tomir xotun (Tomiris), Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, Qabaj xotun, Shodmulkxonim, Arjumand Bonu, Zebiniso begim, Nodirabegim, Nozikoyim, Mingoyim.

**Kirish (Introduction).** Gender tengligi insonning asosiy huquqi bo‘lishdan tashqari, to’liq inson salohiyati va barqaror rivojlanishga ega tinch jamiyatlargar erishish uchun zaruriyat bo’lgan tushunchadir. Bundan tashqari, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish samaradorlik va iqtisodiy o’sishni rag’batlantirishni ko’rsatuvchi asosiy indikator. Gender tengligi - bu ayollar va erkaklar uchun adolatli bo‘lish jarayoni. Adolatni ta’minlash uchun ko’pincha ayollar va erkaklarning teng huquqli o‘yin maydonida faoliyat yuritishi desak mubolag’a bo’lmaydi.”Ayollar tarixi antologiyasi”da aytishicha, antik davr tarixida ayollarining turmush tarzi tarixiy jihatdan ular kimga turmushga chiqqaniga bog’liq edi, chunki ularning roli odatda bolalarni tarbiyalash va uyni boshqarish, er esa daromad olib, uy xo’jaligi boshlig’i va asosiy qaror qabul qiluvchi shaxs bo’lgan. Qadimgi Yunonistonda ayollar erkak fuqarolarga nisbatan kam huquqlarga ega edi. Ularning siyosiy ishtiroki cheklangan, yerga egalik qilolmagan yoki mulkni meros qilib olishi mumkin emas edi va uy roli bilan chegaralangan. Ayollar ham ko’pincha tanho bo’lgan va kamdan-kam hollarda o’z haq-huquqlarini talab qila olishgan. Gender tengligi ayollar va erkaklarning ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan ne’matlar, imkoniyatlar, resurslar va mukofotlardan teng foydalanishini talab qiladi. Gender tengsizlik mavjud bo’lsa, qarorlar qabul qilish va iqtisodiy va ijtimoiy resurslardan foydalanish bilan bog’liq jarayonlarda ba’zi jamiyatlarda, odatda, ayollar istisno qilinadi.

**Metodlar (Methods):** Qadimgi Turon diyorida esa jamiyatdagi ayollarning siyosiy-ijtimoiy roli antik davrlardagidan farqli o’laroq, boshqa tarixiy-ijtimoiy sharoitda vujudga kelgan. O’zbek davlatchiligi tarixida ayollar orasidan yetishib chiqqan arboblarning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda tutgan faol o’rni yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tomir xotun(Tomiris)ning Ahamoniylar dinastiyasi hukmdori Kir II bilan tengma-teng kurashi, Qabaj xotun, Saroymulkxonim, Gavharshodbegim kabi qator tarixiy shaxslarning mamlakatimiz o’tmishida, xalqimiz hayotida egallagan mavqeyi o‘ziga xos bo‘lsa-da, ularning barini birlashtirib turadigan bir omil bor . U ham bo‘lsa, ular shu yurt, shu el xizmatida yashaganlar. Eng muhimi, o’zbek davlatchiligining 2700 yillik tarixiy taraqqiyotida ularning ham davlat, ham jamiyat arbobi sifatidagi o‘ziga xos o‘rinlari bor.

Temur va Temuriylar shahzodalar XIV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrning birinchi choragigacha O’rta Osiyo, Shimoliy Afg'oniston, qisman Eron hamda Iroq mamlakatlarida hukmronlik qilib yurgan kezlarida ularning saroylarida shahzodalar singari Temuriylar sulolasiga mansub malikalar orasida ham iste'dodli siyosatdon, suxandon, yetuk olima va hassos shoiralar , oqila maslahatgo‘ylar, zukko san’atshunoslar yetishib chiqqan. Ular : Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, Shodmulk Xotun, Arjumand Bonu, Zebiniso begimlar shular jumlasidandir. Ular tarix sahnasida va zarvaraqlarida o‘zlaridan o‘chmas iz qoldirganlar.

Ayollarning jamiyatdagi hurmati va nufuzi, ularning siyosiy hayotdagi va ma’naviy-ma’rifiy sohadagi faoliyati keyingi davrlarda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Umarxon Qo‘qon taxtiga Umarxon o‘tirgan davrdan boshlab Nodirabeginning xonlik hayotidagi roli faollahшиб boradi.Umarxon davrida ayollar huquqlari ma'lum borada himoya qilina boshlandi. Bunda uning rafiqasi Nodirabeginning xizmatlari benihoya kattadir. U ayollarning o‘qish, yozishni o‘rganishlari uchun madrasalarda dars tashkil etib, otinoyilarning saboq berishni yo‘lga qo‘ygan. An'anaga ko‘ra, Qo‘qon xoni Olimxon (1798-1810) o‘z hukmronligi davrida ukasi Umarxonni 1806-yilda Mohlaroyimga uylanishi munosabati bilan keliniga mahr uchun katta yer-mulk in’om etgan. Unga berilgan yer-mulk “Chek yeri Mohlaroyim” deb ataladi. U bu mulki yordamida ilm-ma’rifatni rivojlantiradi, yosh ijodkor qiz-juvonlarning ijodini qo‘llaydi. Bundan tashqari Mohlaroyim ham Qo‘qon malikalari udumlariga amal qilib qaynonasi Zuhra Oyim (Mingoyim) va momo qaynonasi Nozik Oyimdan ibrat oladi. U ham Oyim qishlog‘i mavzesida yana bir qo‘rg‘on tashkil etib nochorlarni qo‘llaydi, dehqonlarni o‘zlariga foydalanishga yer-mulk bo‘lib beradi, bolalarini savodini chiqaradi. Buni natijasida ushbu zaminda paydo bo‘lgan yangi qo‘rg‘onga xalq “Mohlaroyim qo‘rg‘oni” deb nom beradilar.

**Munozara (Discussion):** Biroq, ayollarga bo‘lgan hurmat va ularning jamiyatdagi nufuzi keyingi davr oralig’ida jiddiy fenomenga uchray boshladi.Sovet

davlati 20-yillarning o‘rtalaridan boshlab, ayollarning erkaklar bilan “teng huquqli” bo‘lishlari uchun turli-tuman choralarni ko‘rdi: savodsizlikni tugatish kurslarini tashkil etib, xotin-qizlarni o‘qitdi, “Hujum” kampaniyasini e’lon qilib, yuzlab xotin-qizlarni qurbon qilish hisobiga paranjini jamiyat hayotidan quvib chiqardi, xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga jalb etdi, ulardan taniqli jamoat va davlat arboblari, shifokorlar, san’atkorlar, ma’rifat va adabiyot namoyondalari yetishib chiqди. So‘ng 1937-1938-yillarda qatag‘on bo‘roni avj olib, minglab vatandoshlarimiz manglayiga “xalq dushmani” tamg‘asi qo‘yilgach, ular bilan teng huquqli bo‘lgan xotin-qizlarimiz ham mislsiz jabr va zulmning begunoh qurbonlari bo‘ldilar. Hali xalqimizning aksar qismi o‘zbek xotin-qizlarining ham qonli qatag‘on qurbonlari bo‘lganini mutlaqo anglab ulgurmngandi.

**Natijalar (Results):** Arxivda olib borilgan tadqiqot ishlari shundan guvohlik beradiki, 1937-1938 yillarda qatag‘on qilichining o‘tkir tig‘i ayollarimizning dur va marvarid shodalari ilinib kelingan nozikkina bo‘ynlariga qadalgan ekan. Ularning ba’zi birlari Tojixon Shodiyeva singari taniqli davlat va partiya arboblari bo‘lgan, boshqalari esa, Maryam Sultonmurodova singari Germaniyada tahsil ko‘rib kelgani uchun aksilinqilobchi va millatchi sifatida, ba’zan esa chet el razvedkasining josusi sifatida qamoqqa olingan. Ular yo o‘sha kezlardayoq otib tashlangan, yoxud olis va sovuq o‘lkalardagi lagerlarga yuborilgan. Yana o‘nlab va, ehtimol, yuzlab ayollar bo‘lganki, ular “xalq dushmani”ga chiqarilgan farzandlari, erlari va otalarining “aksilinqilobiy, millatchilik faoliyatları” haqida siyosiy idoralarga o‘z vaqtida, Pavlik Morozov singari, xabar bermaganlari uchungina qamoqqa olinib, ne-ne azob-uqubatlarni boshdan kechirmaganlar. Bu ayollarning aksari savodsiz bo‘lganlari yo maishiy tashvishlari bilan o‘ralashib qolganlari uchun emas, balki jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchga aylanib borayotgani uchun qatag‘on bo‘roniga duch keldilar. Ayollarining ko‘pchiligi erlari yo otalari, yo farzandlarining nima qanday ahvolga tushganlaridan xabarsiz edilar. Tergovchilar ham shu holni yaxshi bilganlariga qaramay, ulardan jigargo‘shalarining dushmanlik faoliyatini tasdiqlovchi ko‘rgazmalar berishni talab etganlar. Bunday ko‘rgazmalarni bera olmagan ayollar turli-tuman qiynoqlarga duchor etilgan. To‘g‘ri, ularning aksari hech bir guvohi bo‘lmagani uchun 1939-yilda 1937-1938 yillardagi dahshatli bo‘ronlar bir oz tingach, ozod etildi. Mavjud qonun-qoidalarga ko‘ra, ular qatag‘on qurbonlari hisoblanmasligi kerak edi. Lekin NKVDning qorong‘i yerto‘lalari yoxud turmaning o‘lansa kameralarida ikki-uch yil azob-uqubatda yashagan, erlari yo yaqin kishilarining qiynoqxonalar osha faryodlarini eshitgan va hatto ozod etilganlaridan keyin ham shubha, gumon, tahqir va haqorat hukmron muhitda yashagan bu ayollarni qaysi til bilan qatag‘on qurbonlari bo‘lmagan, deyishimiz mumkin?! Taniqli yozuvchi G‘ozi Yunusning xotini Xadicha Aliyeva hayotidan olingen bir shingil xotira bor. Bu xotira Cho‘lpnomi nomi bilan bog‘liq bo‘lib,

atoqli shoir kameradan maxfiy bir tarzda chiqargan xatida turmada azob chekayotgan "xalq dushmanlari"ning xotinlarini "o'sha davrning qahramonlari", deb atagan ekan. O'ylaymizki, xalq tarixining burilish nuqtalarida yo istilo va istibdod yillarida yashagan jabrdiydalar qatorida tarix bu ayol qahramonlarimizning nomlarini ham o'z bag'rida va avlodlar xotirasida saqlashi lozim. Avlodlar ularning fojiali taqdirlari misolida mustabid sovetlar tuzumining g'ayriinsoniy qiyofasini ko'rishi va bugungi istiqlol davri shabadalaridan mammuniyat va shukronalik tuyishi lozim.

O'zbek ayollarining Vatan mustaqilligi, yurt ozodligi uchun olib borgan kurashlardagi jasurlik va sobitqadamliklari, millatparvarliklari bugungi avlod uchun har jihatdan ibratlidir. Nafaqat bunyodkorlik, obodonchilik, me'morchilik bobida , balki ilm-u ma'rifatni egallash, targ'ib qilish sohalarida ham bizga ulardan katta ma'naviy bisot va g'urur namunasi meros bo'lib qolgan.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) Azamat Ziyo. "O'zbek ayollari tarix sahnasida". O'zRFA, "Fan" nashriyoti, 2002.
- 2) Turg'un Fayziyev."Temuriy malikalar". Toshkent , "A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti", 1994.
- 3) Boburxon Sharipov. "Qor qo'ynida lolalar". Toshkent, 2001.
- 4) Albert Olmsted. "The history of the Persian Empire", Chicago: University of Chicago, 1948.
- 5) Haruki Murakami. "Men without women".
- 6) "Qo'qon xonligi malikalari va dodxoh ayollari xususida ayrim mulohazalar ". Toshkent, 2019.
- 7) Gulizor Shodmonova. " The details of Cyrus death: legend and truth", Termiz davlat universiteti, talabalar 45-ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2019.